

MAKTABLARDA CHET TILI O'QITISH METODIKASI

Avazmurodova Oyrusa Elmurat qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: XXI asrda globalizatsiya jarayoni tez sur'atlarda rivojlanib, dunyo xalqlari o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni kuchaytirib, chet tillarini bilish zaruriyatini yanada oshirmoqda. Chet tillarini o'rganish nafaqat kommunikatsiya qobiliyatini rivojlantiradi, balki o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, dunyoqarashini boyitadi, ularni turli madaniyatlar bilan tanishtiradi. Ushbu maqolada maktablarda chet tili o'qitish metodikasi bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Chet tili o'qitish metodikasi, o'quv jarayoni, samaradorlik, muammolar, yechimlar, ta'lim sifati, zamonaviy yondashuvlar, ta'lim texnologiyalar

Annotation: in the 21st century, the globalization process is developing rapidly, increasing cultural and economic ties between the peoples of the world, further increasing the need for knowledge of foreign languages. Learning foreign languages not only develops communication skills, but also expands the circle of knowledge of students, enriches their worldview, introduces them to different cultures. This article provides feedback on the methodology of teaching a foreign language in schools.

Keywords: Foreign Language Teaching Methodology, educational process, efficiency, problems, solutions, quality of education, modern approaches, educational technologies

Аннотация: В XXI веке процесс глобализации развивается быстрыми темпами, укрепляя культурные и экономические связи между народами мира, увеличивая потребность в знании иностранных языков. Изучение иностранных языков не только развивает коммуникативные навыки, но и расширяет объем знаний учащихся, обогащает их кругозор, знакомит с разными культурами. В данной статье содержатся комментарии к методике преподавания иностранного языка в школах.

Ключевые слова: методика преподавания иностранного языка, учебный процесс, эффективность, проблемы, решения, качество образования, современные подходы, образовательные технологии.

KIRISH

An'anaviy chet tili o'qitish usullari ko'pincha grammatikaga asoslangan bo'lib, o'quvchilarning tilni amaliy qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratmaydi. Zamonaviy yondashuvlar esa o'quvchilarni faol ishtirokchilarga aylantirib, tilni haqiqiy muloqot vositasi sifatida o'rganishga yo'naltirilgan. Maktablarda chet tili o'qitish metodikasi - bu o'quvchilarga chet tilini samarali o'rgatish uchun turli xil usullar, texnologiyalar va strategiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy yondashuvlar o'quvchilarning faol ishtirokini, muloqotga asoslangan o'rganishni, o'quv jarayonini hayotga bog'lashni va texnologiyalarni qo'llashni ta'kidlaydi. Majburiy o'quv predmetlaridan bo'lmish chet til, boshqa fanlar qatorida umumiy ta'lim berishda o'z ulushini qo'shadi. Chet til o'rganish natijasi ham, jarayoni ham umumta'limiy ahamiyatga molikdir. Chunki chet til vositasida olinadigan axborotdan tashqari, uni o'rganish jarayonida qo'llanadigan til birliklari tafakkurni rivojlantiradi, nutqning ifoda planidagi yangi hodisalar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ularning til tajribasini boyitadi.

Muhokama va natijalar

- **Kommunikativ yondashuv:** Bu yondashuv o'quvchilarning tilni muloqotda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Mashg'ulotlar o'quvchilar o'rtasidagi suhbatlar, rollarni o'ynash, real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish orqali olib boriladi.
- **Gumanistik yondashuv:** Bu yondashuv o'quvchilarni markazga qo'yadi va ularning his-tuyg'ulari, shaxsiy tajribalari, qiziqishlari hisobga olinadi. O'quvchilar o'zlari uchun qiziqarli va motivatsion materiallar bilan ishlashadi, o'z bilimlarini ijodiy ravishda ifoda etishadi.
- **Integrativ yondashuv:** Bu yondashuv chet tilini boshqa fanlar bilan birlashtirib, o'quvchilarning turli sohalarda bilim olishini ta'minlaydi. Masalan, tarix darsida chet tilida tarixiy manbalarni o'qish, geografiya darsida chet tilida xarita va diagrama bilan ishlash mumkin.
- **Texnologik yondashuv:** Bu yondashuv o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlab, ularning o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Online kurslar, mobil ilovalar, ta'lim video va audio materiallari o'quvchilarga chet tilini tezroq va qulayroq o'rganish imkoniyatini beradi. Chet tili o'qitish metodikasi bo'yicha turli nazariyalar va amaliy yondashuvlarni taqqoslash.

Muhokama: O'quvchilar va o'qituvchilar nuqtai nazarlarini o'rganish.

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish.

Natijalar:

- O'quvchilarning chet tili darajasi o'sishi.

- O'quvchilarning motivatsiyasi va qiziqishini oshirish.
- Chet tili o'qitishda samaradorlikning oshishi

Muammolar va yechim

An'anaviy usullar: Ko'p maktablarda chet tili o'qitishda an'anaviy, grammatikaga asoslangan usullar qo'llaniladi, bu esa o'quvchilarning faol ishtirokini cheklab, motivatsiyani pasaytirishi mumkin.

- O'quvchilarning turli ehtiyojlari: Har bir o'quvchi individualdir va turli darajada bilimga ega, shuning uchun ularning ehtiyojlarini qondirish muhim.
- Til muhiti: O'quvchilarning chet tili bilan aloqa qilish imkoniyatlari cheklangan, bu esa tilni amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xalaqit beradi.
- Resurslar yetishmasligi: O'quv materiallari, texnologiyalar va malakali o'qituvchilarning yetishmasligi.

Yechimlar:

- Zamonaviy metodik yondashuvlar: Kommunikativ yondashuv, o'yin usullari, loyiha ishlari, onlayn ta'lim resurslari.
- Differentsiatsiya: O'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitish.
- Til muhitini yaratish: O'quv jarayonida chet tilida muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish.
- O'qituvchilarning malakasini oshirish: Zamonaviy o'qitish usullarini o'rganish, yangi texnologiyalar bilan ishlashni o'rganish.
- Resurslarni ta'minlash: O'quv materiallari, texnologiyalar va malakali o'qituvchilarning ta'minoti.

Xulosa va tavsiya

Zamonaviy maktablarda chet tili o'qitish metodikasi o'quvchilarni global dunyoda muvaffaqiyatli yashashga tayyorlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Kommunikativ, gumanistik, integrativ va texnologik yondashuvlar o'quvchilarga tilni amaliy qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga va xalqaro miqyosda hamkorlik qilish imkoniyatini beradi.

O'qituvchilarning malakasi chet tili o'qitish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilar yangi metodlarni o'zlashtirib, o'quvchilar bilan samarali muloqot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak. Chet tili o'qitish jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish ham muhim omil hisoblanadi. O'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishini rag'batlantirish, o'rganish jarayonini qiziqarli va motivatsion qilish uchun. Chet tili o'qitish metodikasi bo'yicha amaliy tadqiqotlar o'tkazish. O'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari

va seminarlar tashkil qilish. Zamonaviy o'quv materiallari va texnologiyalarni joriy etish.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zaripova R. A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma, —T.: O'qituvchi, 1986. — 184 b.
2. O'rta maktabda chet til o'qitish kursi/Prof. V. S. Setlin tahriri ostida (ruscha 1971-yil nashridan tajjima. Tajjimonlar: Soatov S., Aliyev G.). — T. O'qituvchi, 1978. — 223 b.
3. O'rta maktabda chet tillar o'qitish metodikasi kursi bo'yicha pedagogika institutlari programmasi/Mas'ul muharrir J. J. Jalolov. — T.: Maorif ministrligi, 1977. — 29 b.
4. Языкова Н. В. Сборник задач и заданий по методике преподавания иностранных языков: Пособие для студентов. — JL: Просвещение, 1977. — 265 с.
5. Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. — T.: Sharq, 2003. - 302 b.